

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK  
JURNAL

**2/2026**

**Bosh muharrir:**

Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djurayev Risbay  
Ibraimov Xolboy  
Abdullayeva Barno  
Abdullayeva Shaxzoda  
Aliev Seyxun  
Djurayev Dusmurod  
Jabbarov Zarifboy  
Ibragimova Gulnora  
Kamilova Nodira  
Karimova Nozima  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi O'zbekiston

Milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

**2/2026**

---

**CHIEF EDITOR**

Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**

Djurayev Risbay  
Ibraimov Xolboy  
Abdullayeva Barno  
Abdullayeva Shaxzoda  
Aliev Seyxun  
Djurayev Dusmurod  
Jabbarov Zarifboy  
Ibragimova Gulnora  
Kamilova Nodira  
Karimova Nozima  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

The founder: National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

---

**ARTERIAL GIPERTENZIYA KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA  
EHTYOJLARNING QONDIRILGANLIK DARAJASI VA ULARNING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI (ABRAHAM MASLOW NAZARIYASI ASOSIDA)**

*Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li, Toshkent davlat tibbiyot  
universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada arterial gipertenziya kasalligi bilan og'rigan bemorlarda ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi va ularning psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini A.Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi tashkil etadi. Maqolada inson ehtiyojlari va psixoemotsional holatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy psixologik nazariyalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, ehtiyojlarning qondirilmaganligi psixologik zo'riqish, stress, xavotir va depressiv holatlarning shakllanishiga olib kelishi hamda ushbu jarayonlar vegetativ va gormonal mexanizmlar orqali yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

**Tayanch so'zlar:** *arterial gipertenziya, ehtiyojlar ierarxiyasi, A.Maslou nazariyasi, stress, xavotir, depressiya.*

**Аннотация.** В данной статье теоретически проанализирован уровень удовлетворенности потребностей у пациентов, страдающих артериальной гипертензией, а также их психологические особенности. Методологическую основу исследования составляет теория иерархии потребностей, разработанная А.Маслоу. В статье на основе современных психологических теорий раскрыта взаимосвязь между человеческими потребностями и психоэмоциональными состояниями. Кроме того, на основе анализа научной литературы показано, что неудовлетворенность потребностей может приводить к формированию психологического напряжения, стресса, тревожности и депрессивных состояний, а данные процессы через вегетативные и гормональные механизмы оказывают негативное влияние на функционирование сердечно-сосудистой системы.

**Ключевые слова:** *артериальная гипертензия, иерархия потребностей, теория А.Маслоу, стресс, тревожность, депрессия.*

**Abstract.** This article provides a theoretical analysis of the level of need satisfaction and psychological characteristics of patients with arterial hypertension. The methodological basis of the study is the hierarchy of needs theory developed by A.Maslow. The paper examines the relationship between human needs and psycho-emotional states based on modern psychological theories. Furthermore, an analysis of scientific literature indicates that unmet needs may lead to psychological tension, stress, anxiety, and depressive conditions. These processes, through vegetative and hormonal mechanisms, can negatively affect the functioning of the cardiovascular system.

**Key words:** *arterial hypertension, hierarchy of needs, A.Maslow's theory, stress, anxiety, depression.*

**Kirish.** Dunyo bo'ylab 30-79 yosh oralig'idagi aholi orasida arterial gipertenziya keng tarqalgan bo'lib, tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kasallanish darajasi erkaklar orasida ayollarga nisbatan yuqoriroqdir. Xususan, har to'rt nafar erkakdan biri va har besh nafar ayoldan biri ushbu kasallikdan aziyat chekadi. Shu bilan birga, gipertenziya bilan kasallanganlarning asosiy qismi, ya'ni taxminan uchdan ikki qismi past va o'rta daromadli mamlakatlarda istiqomat qiladi. Mazkur hududlarda yashovchi bemorlarning yarmidan ko'pi esa, yetarli darajada tibbiy xizmat va davolanish bilan qamrab olinmagan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar arterial gipertenziya muammosining nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatlari ham mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashovchi insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq qondira olmasligi turli psixoemotsional muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda ehtiyojlarni qondirishdagi qiyinchiliklar insonlarda xavotir, depressiya hamda stress kabi

psixologik holatlarning rivojlanishiga sabab bo'lish ehtimoli mavjud. Shu boisdan, arterial gipertenziya bilan og'riqan bemorlarda psixoemotsional omillar, xususan ehtiyojlarni qondirish darajasi, stress va xavotir holatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Mazkur maqolada arterial gipertenziya bilan og'riqan bemorlarda ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi hamda ularning psixologik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxs ehtiyojlari va motivatsiyasini tushuntirib beruvchi Abraham Maslow tomonidan ishlab chiqilgan Maslow ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi tashkil etadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson xulqi va faoliyati turli darajadagi ehtiyojlar tizimi orqali boshqariladi hamda ushbu ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi shaxsning psixologik holati va ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot nazariy tahlil xarakteriga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda nazariy model-lashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali arterial gipertenziya bilan og'riqan bemorlarning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy jihatdan asoslab berildi.

3Tahlillar shuni ko'rsatadiki, arterial gipertenziya bilan og'riqan bemorlarda ayniqsa6 fiziologik, xavfsizlik va ijtimoiy ehtiyojlar darajasining qondirilmasligi tez-tez uchraydi. Masalan, iqtisodiy barqarorlikning yetarli emasligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning pastligi, ish faoliyati bilan bog'liq noaniqliklar yoki hayotiy xavfsizlikka doir xavotirlar insonda doimiy psixologik zo'riqishni yuzaga keltiradi. Bunday holat organizmning stressga javob reaksiyalarini faollashtiradi. Psixologik stressning uzoq davom etishi vegetativ nerv tizimi faoliyatining buzilishiga, simpatik nerv tizimi faolligining ortishiga hamda gormonal muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi. Natijada, qon tomirlarning torayishi, yurak urish tezligining oshishi va arterial bosimning ko'tarilishi kuzatiladi. Shu sababli ehtiyojlar qondirilmaganligi bilan bog'liq psixologik zo'riqish arterial gipertenziya rivojlanishida muhim psixosomatik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida yuqori darajadagi ehtiyojlar, ya'ni hurmat va tan olinishi, kognitiv va estetik ehtiyojlar hamda o'z-o'zini kamol toptirish ehtiyojlarining qondirilish darajasi ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu ehtiyojlar qondirilmagan holatlarda bemorlarda hayotdan qoniqish darajasi pasayishi, o'ziga nisbatan ishonchsizlik va ijtimoiy passivlik kuchayishi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, stress, xavotir va depressiv holatlarning shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson ehtiyojlarining qondirilish darajasi uning psixologik holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ehtiyojlarning qondirilmasligi yoki nomutanosibliigi uzoq davom etuvchi psixologik zo'riqishni keltirib chiqaradi. Ushbu holat esa, vegetativ va gormonal mexanizmlar orqali yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, arterial gipertenziya kasalligining rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin.

**Xulosa.** Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson ehtiyojlarining qondirilmaganligi psixologik zo'riqish, xavotir va depressiya kabi holatlarning shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, Maslow nazariyasida ko'rsatilgan fiziologik, xavfsizlik va ijtimoiy ehtiyojlar inson psixologik barqarorligi uchun asosiy omillar hisoblanadi. Agar ushbu ehtiyojlar qondirilish imkoniyati past bo'lsa yoki ehtiyojlar darajasi haddan tashqari yuqori bo'lsa, insonda doimiy stress holati yuzaga keladi. Surunkali stress esa, vegetativ nerv tizimi faoliyatining buzilishi, gormonal disbalans va qon bosimining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli ehtiyojlar qondirilganlik darajasini o'rganish arterial gipertenziya kasalligining psixologik omillarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

- 1) Arterial gipertenziya bilan og'riqan bemorlarning psixologik holatini aniqlash

---

maqsadida ularning ehtiyojlari qondirilganlik darajasini muntazam psixologik diagnostika qilish tavsiya etiladi.

2) Bemorlar orasida stress, xavotir va depressiv holatlarning oldini olish uchun psixologik maslahat va stressni boshqarish bo'yicha psixoprofilaktik dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3) Arterial gipertenziya profilaktikasida inson ehtiyojlarining muvozanatli qondirilishini ta'minlashga qaratilgan psixologik yondashuvlardan foydalanish bemorlarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Alderfer C.P. An empirical test of a new theory of human needs // Organizational behavior and human performance. - 1969. - Vol. 4. - No. 2. - P. 142-175. DOI: [https://doi.org/10.1016/0030-5073\(69\)90004-X](https://doi.org/10.1016/0030-5073(69)90004-X)

2. Deci E.L., Ryan R.M. The «what» and «why» of goal pursuits: human needs and the self-determination of behavior // Psychological inquiry. - 2000. - Vol. 11. - No. 4. - P. 227-268. DOI: [https://doi.org/10.1207/S15327965PLI1104\\_01](https://doi.org/10.1207/S15327965PLI1104_01)

3. Herzberg F., Mausner B., Snyderman B. The motivation to work. - New York: John Wiley & Sons, 1959. - 157 p.

4. Maslow A.H. A theory of human motivation // Psychological review. - 1943. - Vol. 50. - No. 4. - P. 370-396. DOI: <https://doi.org/10.1037/h0054346>

5. Maslow A.H. Motivation and personality. - New York: Harper & Row, 1954. - 411 p.

6. McGregor D. The human side of enterprise. - New York: McGraw-Hill, 1960. - 246 p.

7. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory: basic psychological needs in motivation, development, and wellness. - New York: Guilford Press, 2017. - 756 p.

8. Alimirzayev N. (2025, February). Effects of positive and negative emotions on human health: International conference of academic sciences. Vol. 4. No. 2. - P. 39-42.

9. Alimirzayev N.A. Gipertenziya rivojlanishiga psixologik omliklarning ta'siri. - T., 2025.

10. Avazbek o'g'li, A.N. (2024). Shaxslararo muloqotda empativlikning o'rni // Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2 (2), 190-195.

11. Alimirzayev N. Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri // Maktabgacha va maktab ta'limi. - T., 2025. - 674171.

12. Alimirzayev N.A. Xodimlar faoliyatini psixologik boshqarish uslublari // Ta'lim va global tadqiqotlar. - T., 2025. - 3 (5 (1))-son. - B. 438-444.

<b>Tajiboyeva S.X.</b> Biologiya fanini o'qitishda Abu Ali ibn Sino ta'limotlarining pedagogik va ilmiy-metodik xususiyatlari.....	153
<b>Murotaliyev J.R.</b> Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida shaxslararo munosabat va ta'sir etish metodlari.....	157
<b>Axrороva S.S.</b> Zamonaviy ta'lomdagi mrtodik yondashuv va o'zlikni anglash.....	200
<b>Хужаханова М.Т.</b> Уровень психологического благополучия индийский студентов-медиков в условиях обучения за рубежом.....	248
<b>Shamatova B.</b> O'smirlar bilan ishlash jarayonida samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'llari.....	253
<b>Tashpo'latova B.O.</b> Mahalla – ma'rifaf va tarbiya maskani.....	260
<b>Berdiyev A.P.</b> Abdulla Avloniy didaktik qarashlarining jadidchilik ta'limi rivojidadagi ahamiyati.....	266
<b>Raxmatullayeva Ch.Sh.</b> O'quvchilarning qadriyatli yo'nalishlarini shakllantirishda aksiologik yondashuvga asoslangan baholashnin pedagogik imkoniyatlari.....	177
<b>Abduqahhorova D.I.</b> Ta'lim jarayonida o'qitish tizimida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati.....	182
<b>GUMANITAR VA IJTIMOIIY FANLAR TA'LIMI</b>	
<b>Нурманов А.Т., Шагаева А.Ю.</b> Методика интеграции ИИ-инструментов в уроки русского языка и литературы в Узбекистане: развитие критического мышления и повышения читательской грамотности.....	186
<b>Raimova K.B.</b> Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida psixologingvistik yondashuvlar asosida bilingvizm ko'nikmalarini rivojlantrish: nazariy tahlil va konseptual madel.....	192
<b>Sodiqov R.T.</b> Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim sifatini boshqarish jarayonining konseptual modeli.....	198
<b>EKOLOGIK TA'LIM</b>	
<b>Муртазаева М.М., Дехкамбаева З.А.</b> Идея «Зеленого города» и перспективы современного образования в высших образовательных учреждениях.....	202
<b>Умарова Г.Б., Бабаханова Д.Ш.</b> Научно-технические внедрения безотходных технологий в республике Узбекистан и их экологическая эффективность.....	240
<b>TABIIY FANLAR TA'LIMI</b>	
<b>Toshpulatova Sh.O.</b> Kompetesiyaviy tushunchasining mazmuni, mohiyati hamda asosiy jihatlarini rivojlantitishning fizika fanini o'qitishdagi metodologik tahlil.....	260
<b>Mamatkulov D.A., Murodullayeva H.A.</b> Minimal miya disfunktsiyasi bo'lgan bolalar bilan ishlashda miya funksiyalarini to'liq rivojlanuvchi mashqlar va tavsiyalar.....	300
<b>Alimirzayev N.A.</b> Arterial giperternziya kasalligi bilan og'rigan bemorlarda ehtiyojlarda qondirilganlik darajasi va ularning psixologik xususiyatlari (Abraham Maslow nazariyasi asosida).....	338
<b>Xushvaqtov O'.N.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qattiq jismlar fizikasini o'qitishda raqamli ta'lim muhitidan voydalanish samaradorligi.....	341
<b>SAN'AT VA JISMONIIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI</b>	
<b>Lutfullayev A.</b> Yangilanayotgan musiqa ta'limi.....	225
<b>Измаилов А.М.</b> Роль ударных инструментов в оркестровой палитре Игоря Стравинского: от ритмического акцента к архитектуре музыкального времени.....	228
<b>Urasimbetiv I.A.</b> Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda suzish mashqlarini differensiallashtirib o'qitishning innovatsion usullari.....	233
<b>Ismatova O.</b> Xorazm maqom san'ati va o'zbek musiqa merosining durdonasi.....	237
<b>Makhkamova G.T.</b> Review of the monograph by B.Khodjaev «Didactic foundations of forming pupils'» (2026).....	240

**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER NIZAMI  
PEDAGOGICA**

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 2

**МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО  
И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ  
ПЕДАГОГИКА**

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 2

**“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.**

**Mas’ul kotib** – R.M.Medetova

**Muharrirlar** – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva

**Sahifalovchi** – S.Pirmatov

**Nashr ko’rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2026-yil 26-mart bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 80 nusxa. 15 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub> “Roboto” garniturasini.

Nizomiy nomidagi O'MPU “Tahrir va nash” bo'limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.

